Tarbiya

1



novda
edutainment

Education Alliance Finland
TIER 1
CERTIFIED
PEDAGOGICAL QUALITY

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O.V. Usmanova
Y.V. Risyukova

Tarbiya

1-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun

Ta’limni rivojlantirish Markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

TASDIQLANGAN PLAGIATGA QARSHI TASDIQLANGAN

novda
edutainment
Toshkent – 2023



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Aziz farzandlarim!

Sizni maktab ostonasiga qo'ygan ilk qadamingiz bilan tabriklayman.

Birinchi qo'ng'iroq hayotingizdagi unutilmas voqealardan biri bo'lib qoladi. Men ham hali-hanuz qadrdon maktabimni, ustozlarimni, sinfdosh-do'stlarim bilan o'tgan beg'ubor davrlarni sog'inib eslayman.

Maktab inson hayotining eng muhim bo'g'inlaridan biridir. Sizning qanday inson bo'lib shakllanishingiz ko'p jihatdan shu dargohda oladigan bilim va tarbiyangizga bog'liq.

Oilada ota-ona, maktabda o'qituvchilaringiz sizni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Ustozlarni hurmat qilish, e'zozlash, ularning sizga berayotgan mehri va e'tiborini qadrlash lozim.

Siz – kelajak bunyodkorlarisiz. Orangizdan Vatanimizga sharaf keltiradigan, O'zbekiston nomini yanada yuksaklarga ko'taradigan olim-u adiblar, muhandis va dasturchilar, davlat arboblari-yu iqtisodchilar, jahon tan olgan qo'li gul hunarmand hamda me'morlar chiqadi. Men sizga ishonaman! Davlat rahbari sifatida mening Sizdan umidim katta!

Shavkat Mirziyoyev

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG'ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI BO'LIMI
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№ 35
3-09 2023

Kirish

Qadrli o‘quvchilar!

Siz yangiliklarga to‘la olam qarshisida turibsiz. Bu dargohda o‘tadigan hayotingiz hayratli ixtirolar, serqirra bilimlar va quvonchli hodisalarga boy bo‘lsin!

Maktab davrida siz yorqin taassurotlarga ega bo‘lasiz, yangi do‘stlar orttirasiz, ko‘p narsani bilib olasiz. Qiziquvchanlik va tirishqoqlik katta yutuqlarga erishishingizga yordam beradi.



Ilm yo‘lida sizga har doim dono murabbiylar va ishonchli do‘stlar hamroh bo‘lishini tilaymiz!

Yodda tuting

- Darsliklarni toza va butun saqlash uchun ustini o‘rang.
- O‘quv qurollaringizni asrab-avaylang.
- Ko‘chadan uyga kirganda qo‘lingizni sovunlab yuving.
- Uyga kelgach, maktab kiyimingizni almashtiring.
- Kiyimingiz toza bo‘lsa, joyiga ilib qo‘ying.
- Hech qachon kir va g‘ijim kiyimda yurmang.





Mening Vatanim – O‘zbekiston





Men o‘zbekman!

O‘zbek qonida mardlik, g‘urur, qahramonlik bor bo‘lgan buyuk millatdir. Bu – jahon ilm-fani, tibbiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, Islom dini yordamida dunyoni o‘zgartirgan ajdodlarning davomchisi.

O‘zbek – o‘ziga bek degani! U hech qachon birovga bo‘yin egmaydi, qul bo‘lmaydi.

U burgut kabi erkin va mag‘rurdir. Uning parvozi baland. Qo‘rqmay eng yuksak cho‘qqilarni, bilimi va salohiyati bilan butun jahonni zabt etishga qodir.

O‘zbek hech kimni sotmaydi va sotilmaydi; birovga zulm qilmaydi; o‘zgalarni kamsitmaydi. Boshqa millatlarga ham cheksiz hurmat bilan munosabatda bo‘ladi. Yaxshilikni unutmaydi.

O‘zbek – vafodor do‘st, ishonchli hamkor, dunyoqarashi keng odam.

O‘zbek – bu men! Men o‘zbekligim bilan faxrlanaman!






MEN YASHAYDIGAN O‘ZBEKISTON

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Odam bolasi yer yuzining ma’lum joyida tug‘iladi. Shu joy uning Vatani bo‘ladi.

O‘zbekiston – bizning Vatanimiz. Yurtimiz dunyodagi eng go‘zal mamlakatlardan biri. Bu yerda o‘zbeklar bilan birga boshqa millatlar ham ahil-inoq yashaydi.

O‘zbekistonda Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo‘qon kabi dunyoga mashhur tarixiy shaharlar bor. Toshkent shahri mamlakatimiz poytaxtidir.




Savollarga javob bering

1. Vatanni yana qanday nomlash mumkin?
2. O‘zbekistondagi yana qaysi shaharlarni bilasiz?
3. Siz qaysi qishloq (shahar)da yashaysiz?

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Bo‘yang

O‘zbekiston bayrog‘ini bo‘yang. Sizga qaysi ranglar kerak bo‘ladi?



Xalq o‘gitlari

- Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni.
- Vataning tinch – sen tinch.
- Baliqqa suv, qushlarga havo, odamga esa Vatan kerak.

Savollarga javob bering

1. Bayroqdagi ranglar nimani bildiradi?
2. Vatan haqida she’r yod olganmisiz? Aytib bering.

Ijodiy topshiriq

Ko‘changiz va uyingiz rasmini chizing.



Bo‘yang

1. Dars siz uchun qiziqarli bo‘ldimi?



2. Dars mazmuni tushunarli bo‘ldimi?



MEN KIMMAN?

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Kechagina erkatoy bolajon edingiz. Endi o‘quvchisiz, demak, katta bo‘ldingiz. Maktabga kelib, yangi do‘stlar orttirasiz va ular bilan ko‘p yillar birga o‘qiysiz.

Keling, tanishib olamiz.



Assalomu alaykum. Mening ismim – Akmal. 7 yoshdaman. Men konstruktor o‘yinchoqlarni yig‘ishni va futbol o‘ynashni yaxshi ko‘raman hamda bobomga bog‘da yordam beraman.



Assalomu alaykum. Mening ismim – Madina. Akmalning egizak singlisiman. Men onam bilan non yopishni va kitob o‘qishni yoqtiraman.

Savollarga javob bering

1. Nima uchun odamlar o‘zlarini tanishtirishlari kerak?
2. Akmal va Madina haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Sizga qanday mashg‘ulotlar yoqadi?

Mening tashrif qog‘ozim

Ismingiz

Yoshingiz

Nimalarni yoqtirasiz?



Og‘zaki topshiriq

Oilada kimga, qanday yordam berishingizni aytib bering.






Ijodiy topshiriq

Bo‘sh vaqtingizda nimalar qilasiz? Rasm orqali tasvirlang.



MAKTABGA SAYOHAT

O‘quvchiga esdalik

Bo‘lay desang bog‘bon
Yo Vatanga posbon,
Yo osmonda uchuvchi,
Yo dengizda suzuvchi,
Nimaki qilsang tilak
Bariga o‘qish kerak.
O‘quvchi sendan talab:
Maktabga bor ertalab,
O‘qi, berib mehringni,
Qo‘yib ko‘ngil, zehningni.

Quddus Muhammadiy



Akmal, maktabimizda sinf xonalaridan boshqa yana qanday joylar bor?



Kel, buni birgalikda bilib olamiz.



Bu – sinf xonasi. Bu yerda dars o‘tiladi, bolalar turli fanlarni o‘rganadilar. Siz qanday fanlarni o‘rganyapsiz?



Sinf xonasi

Bu – maktab yo‘lagi. Bu yerda tanaffus payti o‘quvchilar vaqt o‘tkazishi mumkin. Yo‘lakda yugurish va shovqin solish mumkin emas.

Nima uchun?



Maktab yo‘lagi

Yodda tuting

Maktabda telefondan foydalanishning tartib-qoidalari bor:

– maktab hududida telefon qo‘ng‘irog‘ining ovozini pasaytirib qo‘yish kerak;

– dars boshlanishidan oldin telefonni o‘chirib, portfelga solib qo‘yish zarur.

FARG'ONA
RISHTON
MAKTABI
35

Sport zalida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Bu yerda o‘quvchilar jismonan chiniqadilar. Sport zaliga o‘qituvchi boshchiligida kirgan ma’qul.

Nima uchun?



Sport zali

Maktabdagi yig‘ilish va bayramlar ijod zalida o‘tkaziladi. Bu yerda sahna hamda tomoshabinlar uchun o‘rindiqlar mavjud.

Bolalar sahnada o‘z qobiliyatlarini ko‘rsatadilar, qo‘shiq kuylaydilar va raqsga tushadilar.

Ijod zalida o‘quvchi o‘zini qanday tutishi kerak?



Ijod zali

Maktab oshxonasida o‘quvchilar ovqatlanishlari mumkin. Ovqatlanishdan oldin va keyin qo‘llarni yuvish odobdandir. Ovqatlanayotgan paytda telefonga chalg‘imaslik kerak.

Maktab oshxonasida o‘quvchi o‘zini qanday tutishi kerak deb o‘ylaysiz?



Maktab oshxonasi

Kitob – bilim olish manbalaridan biri. Maktab kutubxonasida turli qiziqarli kitoblar saqlanadi. O‘quvchilar kutubxonadan kitob olishlari va o‘quv zalida o‘qishlari mumkin.

Kitoblarni o‘qish uchun uyga olib ketish ham mumkin. Biroq ularni kutubxonaga o‘z vaqtida, butun holda qaytarish kerak.

Siz qanday kitoblar o‘qishni yoqtirasiz?



Maktab kutubxonasi

Har bir maktabda tibbiyot xonasi mavjud. Kimdir jarohat olsa o‘zini yomon his qilsa yoki isitmasi chiqsa, maktab shifokori unga yordam ko‘rsatadi.

Yana qanday holatlarda maktab tibbiyot xonasiga murojaat qilinadi?



Tibbiyot xonasi

Maktab psixologi – qiyin holatlarda yordam berib, qo‘llab-quvvatlaydigan mutaxassis.

O‘quvchi maktabda, uyida yoki ko‘chada og‘ir vaziyatga tushsa, bu haqda psixolog bilan gaplashishi mumkin. G‘azab, hayajon yoki xavotirini ichda saqlash kerak emas. Agar bolalar bilan biror kor-hol ro‘y bersa, maktabdagi kattalar ularga yordam berishga tayyor.



Psixolog xonasi

Hojatxona nima uchun kerakligini hamma biladi. Uni toza saqlash birinchi navbatda sog'lig'imiz uchun muhim hisoblanadi. Hojatxonadan tartibsiz foydalanish, eshiklar va devorlarni teshib, ularga chizish, iflos qilish, gigiyena qoidalarini buzish tarbiyasizlikka kiradi.

Hojatxonadan foydalanib bo'lgach:

- qog'ozni axlat qutisiga tashlash;
- suv tushirgichni ishlatish;
- qo'llarni sovunlab yuvish kerak.

Qo'l yuvish qoidalarini bilasizmi?



Hojatxona


Maktab hovlisi maktab atrofidagi o'ralgan hudud hisoblanadi. Bu yerga daraxt va gullar ekish mumkin. Ekilgan gullarni yoki daraxtlarni asrab-avaylash va gulzorga aylantirish kerak.



Maktab hovlisi

Maktab hovlisida sport maydonchalari bo‘ladi. Bu yerda issiq kunlarda jismoniy tarbiya darslari, sport musobaqalari o‘tkaziladi.

Sport maydonchalarida qanday jismoniy mashqlar va sport turlari bilan shug‘ullanish mumkin?



Sport maydonchasi

Yodda tuting

Evakuatsiya – odamlarni xavfli hududdan olib chiqish.

Ba’zan maktabda yong‘in, gaz sizib chiqishi yoki zilzila singari kutilmagan hodisalar sodir bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda o‘quvchilarni qutqarish uchun maktab devorlariga evakuatsiya rejalari ilib qo‘yiladi.

O‘qituvchi yordamida o‘rganing


Evakuatsiya rejasidagi belgilarga diqqat qiling.

asosiy evakuatsiya yo‘li

yong‘in o‘chirish vositasi

olov o‘chirgich

yong‘indan ogohlantirish tugmasi




Og‘zaki topshiriq

Bu faoliyatlar bilan o‘quvchilar maktabning qaysi xonalarida shug‘ullanadilar?



Bo‘yang

1. Dars siz uchun qiziqarli bo‘ldimi?



2. Dars mazmuni tushunarli bo‘ldimi?




MAKTABIM – IKKINCHI UYIM

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

1

Siz – o‘quvchisiz va ko‘p vaqtingiz maktabda o‘tadi. Bu yerda ilm olasiz, yangi do‘stlar orttirasiz, mustaqil hayotga tayyorlanasiz.

Maktab ikkinchi uy sanaladi. Uni qadrlash, jihozlarini asrab-avaylash lozim. Chunki maktab boshqa bolalar, uka va singillaringiz bilim olishi uchun ham kerak.



Maktab bizning bog‘imiz,
Sha’n-u shavkat, tojimiz,
O‘quv, yozuvdan yetar
Har ishda rivojimiz.

Hamza

Savollarga javob bering

1. Nima uchun maktabga kelamiz?
2. Nega maktabni ikkinchi uy deb ataymiz?
3. Maktabda o‘zimizni qanday tutishimiz kerak?

Yozma topshiriq

Bu qoidalar sizning bilim olishingizga yordam beradi. Rasmlarni mos matn bilan bog‘lang.











- Sinfdoshlaringiz bilan hamkorlikda ishlang.
- Uy vazifasini bajaring.
- O‘qituvchingiz va sinfdoshlaringiz javobini diqqat bilan tinglang.
- Agar dars payti nimadir demoqchi bo‘lsangiz, qo‘lingizni ko‘taring.
- Biror narsani tushunmasangiz, so‘rashdan qo‘rqmang.

Vaziyatni o‘rganing

Tasavvur qiling, sinfdoshingiz bexosdan partaga rasm chizib qo‘ydi.



Savollarga javob bering

1. Bunday vaziyatda nima qilish kerak?
2. Maktab mulkini asrab-avaylash qanchalik muhim?
3. Siz sinf xonasini asrashga qanday hissa qo‘shasiz?

Tabiatni asraymiz

Har bir varaq muhim!

Chiqindilar miqdorini kamaytirish haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Masalan, varaqning ikkala tomonidan ham foydalanish mumkin. Bu ishingiz orqali daraxtlarni va atrof-muhitni asrashga hissa qo‘shasiz. Faqat bir tomoniga yozilgan qog‘ozlarni axlatga tashlamang.

Vaziyatni o‘rganing

Tanaffus payti. O‘rtog‘ingiz konfet yeb, qog‘ozini polga tashlad




Savollarga javob bering


1. Bunday vaziyatda nima qilasiz?
2. O‘rtog‘ingizga duch kelgan joyga axlat tashlash mumkin emasligini qanday tushuntirasiz?

Bo‘yang

1. Dars siz uchun qiziqarli bo‘ldimi?




2. Dars mazmuni tushunarli bo‘ldimi?



O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Ustoz har bir inson hayotida muhim o‘rin tutadi. U bizga bilim beradi, bilmaganlarimizni o‘rgatadi, maktab qoidalari bilan tanishtiradi.

Sizga insonlarning qaysi fazilatlari yoqadi?





Xalq o‘gitlari

Dono xalqimizda *“Ustoz – otangdek ulug‘”, degan maqol bor.*

Odam kim bo‘lishidan qat’i nazar, ustozlardan ta’lim olishi, o‘rganishi zarur. Shunda hayotda yutuqlarga erishadi.

Millatning ertangi kuni bugun bolalarga berilayotgan bilim va tarbiyaga bog‘liq. Ustoz va o‘qituvchilar bilimlarni avloddan avlodga yetkazadigan fidoyi insonlardir. Shuning uchun o‘zbek xalqi orasida ustozlarning o‘rni doim yuqori.

Bo‘yang

Mening ustozlarim





O‘qituvchilaringizning ismlarini ayting.

Yozma topshiriq

O‘ylab ko‘ring va gaplarni to‘ldiring.

Endi men ..... ni bilib oldim
Endi men ..... qilaman
Endi men ..... qilmayman

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

O‘quvchilar maktabga piyoda, mashinada yoki avtobusda kelishadi.

Har qanday holatda ham yo‘l qoidalariga amal qilish zarur.




Savollarga javob bering

1. Siz maktabga nimada kelasiz?
2. Maktabga kelib-ketishda yo‘l qoidalariga rioya qilasizmi?
3. Yo‘lda nimalar qilish mumkin emas?
4. Nega yo‘ldan o‘tayotganda telefonda gaplashmaslik kerak?

Ijodiy topshiriq

Uyingizdan maktabgacha bo‘lgan yo‘lni tasvirlang.



Yozma topshiriq

O‘ylab ko‘ring va gaplarni to‘ldiring.

Endi men ..... ni bilib oldim.
Endi men ..... qilaman.
Endi men ..... qilmayman.

BIZ AHIL JAMOAMIZ



O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Bizning sinfimiz – katta, ahil oila. Har bir oilada quvonchli va tashvishli kunlar bo‘ladi. Sinfimizda ham shunday holat bo‘lishi mumkin. Biz ahil bo‘lib qolishimiz uchun bir-birimizni qo‘llab-quvvatlashimiz va hurmat qilishimiz kerak. Chunki kuch birlikda.

Xalq o‘gitlari

Kuch – birlikda

Bir cholning o‘g‘illari ahil emas edi. Ota “Bolalarim, birdam bo‘linglar”, deb nasihat qildi, ammo ular quloq solmadi.

Shunda u o‘g‘illariga daraxt novdalarini yig‘ib kelishni buyurdi. O‘g‘illar buyruqni bajardi.

Chol o‘g‘illariga bir dasta novdani berib, “Qani, sindiringlar-chi”, dedi. O‘g‘illar qancha urinmasin, uni sindira olmadilar.

Keyin novdalarning bog‘ichini yechib, o‘g‘illariga bittadan ulashdi. O‘g‘illar novdani osongina sindirdilar.

Otasi ularga: “Bolalarim, sizlar ahil bo‘lsangiz, hech kim yenga olmaydi. Agar birlashmasangiz, eng kuchsiz dushman ham osongina yengadi”, – dedi.

Og‘zaki topshiriq

Rasmlarga diqqat bilan qarang. Bu bolalarni do‘stlar deyish mumkinmi?

O‘zingizga yoqqan rasmdagi vaziyat haqida gapirib bering.







Og‘zaki topshiriq

Rasmlarni diqqat bilan o‘rganing. Sizningcha, bolalarning o‘zaro munosabati qanday?



Ahillik – boylikdan afzal. Shuning uchun sinfdoshlar bilan doimo ahil bo‘lish kerak.

Bo‘yang

Sinfingizdagi bolalar ahilmi? Siz kuchli jamoamisiz? Javobingizga mos rasmni bo‘yang.



Ha



Yo‘q



Hali bilmayman

Xalq o‘gitlari



Xalqda “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar”, degan maqol bor. Bu maqol birdamlik, ahillik, o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlashni anglatadi. Siz biror ishni jamoa bo‘lib qilsangiz, ishingiz ancha oson kechadi.

Birdamlikda maqsadga tezroq erishish mumkin. Bir maqsad yo‘lida harakat qilayotgan jamoa kuchli bo‘ladi, uni hech kim yenga olmaydi.

Vaziyatni o‘rganing

Bunday vaziyatlarda siz qanday yo‘l tutasiz?

- O‘rtog‘ingiz futbolni yaxshi o‘ynay olmagani uchun jamoangiz musobaqada yutqazmoqda.
- Sinfdoshingiz nojo‘ya ishga qo‘l urishni taklif qildi.
- O‘rtog‘ingiz bilan tortishib qoldingiz.
- Do‘stingiz uy vazifasini bajarmay kelib, sizdan ko‘chirib olishni so‘radi.

Ijodiy topshiriq

Sinf jamoasining birdamligini ko‘rsatuvchi ramz (emblema) o‘ylab toping va chizing.

Yozma topshiriq

O‘ylab ko‘ring va gaplarni to‘ldiring.

Endi men ..... ni bilib oldim
Endi men ..... qilaman
Endi men ..... qilmayman

MUSTAHKAMLASH

Vaziyatni o‘rganing





Akbar olma va pechenye yedi. Olma po‘chog‘i va pechenye qog‘ozini axlat qutisiga tashlashga erinib, parta ostida qoldirdi.

Aziza buni ko‘rib, tanbeh berdi:

– Nega bunday qilding? Agar hamma senga o‘xshab axlat tashlasa, sinf xonamiz iflos bo‘lib ketadi-ku!

– Qo‘yaver, navbatchilar darsdan keyin tozalashadi, – dedi Akbar.

Sinfga kirgan o‘qituvchi doska artilmaganini ko‘rib, so‘radi:

– Bugun kim navbatchi?

Shunda Akbar bugun o‘zi navbatchi ekanini esladi.

Birovning mehnatini qadrlash odob belgisidir.

Savollarga javob bering

1. Akbar to‘g‘ri ish qildimi?
2. Sinf xonangiz tozaligini qanday saqlaysiz?
3. Nima uchun tozalikka e’tibor berish kerak?



Guruhlarda ishlash

1. Maslahatlarni o‘qing.


- Biror nimani tushunmasangiz, savol berishdan qo‘rqmang.
- O‘qituvchi va sinfdoshlaringiz gapini diqqat bilan tinglang.
- Uyga berilgan vazifalarni albatta bajaring.
- Darsga o‘z vaqtida keling.
- Maktabingizni ozoda saqlang.
- Maktab anjomlarini asrab-avaylang.
- Kitob-daftaringizni toza tuting.
- Xushmuomala bo‘ling.
- Do‘stlardan yordamingizni ayamang.
- Atrofdagilarni hurmat qiling.

2. Savollarga javob bering.

1. Qaysi qoidalar bilim olishga yordam beradi?
2. Qaysi tartib-qoidalar maktabni toza va shinam saqlashga yordam beradi?
3. Qaysi qoidalar sizning ahil jamoa bo‘lishingizga yordam beradi?

Yozma topshiriq

Maktab so‘zi bilan bog‘liq rasmlar asosida klaster tuzing.



Og‘zaki topshiriq

Madina nima qilyapti? Sinfdoshlaringiz bilan maktab hovlisida qanday ishlarni bajarasiz?




Bugun darsda nimalarni o‘rgandingiz?
Shu haqda gapirib bering.
Ushbu belgilarni daftaringizga chizing.



1. Rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Unda qanday belgilarni ko‘ryapsiz?
3. Bu belgilar nimani anglatadi?
4. Yashil hududni nima uchun ehtiyot qilish kerak?

Rasm asosida hikoya tuzing.



Men va do‘stlarim



SO‘ZLASHISH ODOBI

Sehrli so‘zlar

Har bir gap-u so‘zimiz –
Go‘yo oyna-ko‘zgumiz.
Aytgan har so‘zimizda
Ko‘rinamiz o‘zimiz.
Qanday yaxshi so‘z-kalom
Odob boshi “Assalom”.
Xush yoqadi hamma vaqt:
“Rahmat”, “labbay”, “marhamat”.
So‘nggi so‘z ham alomat –
“Xayr, bo‘ling salomat!”

Dilshod Rajab

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

“Assalomu alaykum”, “rahmat”, “marhamat” kabi so‘zlar seh
so‘zlardir. Chunki bu so‘zlar har qanday odamning ko‘ngliga y
topadi. Odamlar siz bilan suhbatlashganda gap-so‘zingizdan
qanday bola ekaningizni bilib oladi. Odobli bola har bir so‘zini
o‘ylab gapiradi.



Savollarga javob bering

1. Bulut ichidagi so‘zlar qachon ishlatiladi?
2. Bu so‘zlar bizga qanday yordam beradi?
3. “Rahmat” so‘zini qaysi so‘zlar bilan almashtirish mumkin?
4. Kechirim so‘rash uchun qaysi so‘zlardan foydalanamiz?

Guruhlarda ishlash

Sehrli so‘zlar yordamida o‘rtog‘ingiz bilan savol-javob qiling.



Xalq o‘gitlari

- Yaxshi so‘z – jon ozig‘i, Yomon so‘z – bosh qozig‘i.
- Odob boshi – til.
- O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir.
- Oz gapir – soz gapir.

Savollarga javob bering

1. Maqollarning ma’nosini tushundingizmi?
2. Qaysi maqol sizga yoqdi?
3. Xushmuomala odam eng ko‘p qaysi so‘zlarni ishlatadi?

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Hozirgi kunda odamlar ko‘p vaqtini kompyuter yoki telefond o‘tkazadi. Muloqot qilish uchun telefonda gaplashadi, ijtimoiy tarmoqlardan xabar yuboradi. Biroq telefon suhbati yoki yozma xabarlar yuzma-yuz gaplashishning o‘rnini bosa olmaydi. Shuning uchun do‘stlaringiz va yaqinlaringiz bilan ko‘proq yuzma-yuz gaplashing.






Xalq o‘gitlari

Xalqimiz azaldan salomlashish odobiga katta ahamiyat bergan. Bolalarga har qanday vaziyatda gapni “Assalomu alaykum” deb boshlash kerakligi aytiladi. O‘zbek mahallasida katta-yu kichik bir-biri bilan salomlashib o‘tib ketishi – chiroyli odatlarimizdan biri.

Og‘zaki topshiriq

Qaysi qurilmalar orqali muloqot qilish mumkin?









Savollarga javob bering

1. Telefonda suhbatni qanday boshlash kerak?
2. Suhbat paytida qanday so‘zlardan foydalanish lozim?
3. Telefonda gaplashishning afzalligi nimada?
4. Telefonda gaplashishning qanday kamchiligi bor?

Yodda tuting

Maktab va boshqa jamoat joylarida telefonda baland ovozda gaplashmaslik kerak.

Oilada, sinfdoshlar va boshqa odamlar bilan gaplashganda telefonni chetga olib qo‘yish lozim.

Og‘zaki topshiriq

Rasmdagi vaziyatda qanday sehrli so‘zlarni qo‘llash kerak?



O‘ZARO YORDAM

Vaziyatni o‘rganing

Jasur bilan Anvar kim tezroq raketa yasay olishi haqida bahslashib qolishdi.

Anvar raketani bir o‘zi yasamoqchi bo‘ldi. Jasur esa Aziza, Sardor va Madina bilan birga yasadi.

Sizningcha, kimning raketasi tezroq tayyor bo‘ldi?



O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Odamlarning bir-biriga ko‘mak berishi o‘zaro yordam deyilad
Xalqimizda qadimdan hamma katta ishlarni hashar yo‘li bilan
qilish odati bor. O‘zbek mahallasida qo‘ni-qo‘shnilar kelishib,
bir-birini qo‘llab yashaydi, zarur paytda yordamini ayamaydi.

Vaziyatni o‘rganing

Nodira sinfda navbatchi bo‘lganida, Malikadan unga yordam
berishini iltimos qildi. Malika ikkilanmay rozi bo‘ldi. Qizlar
sinf xonasini tezgina yig‘ishtirib, uyga ketishdi. Malikaning
gali kelganida, u ham Nodiradan yordam so‘radi. Nima deb
o‘ylaysiz, Nodira Malikaga yordam beradimi? Nima uchun?



Vaziyatni o‘rganing

Qattiq shamolda bir daraxtning shoxi sinib, yo‘lni to‘sib qo‘ydi. Akmal uni chetga olishga harakat qildi, lekin kuchi yetmadi. O‘rtoqlari Akmalga yordamga kelishdi. Ular birgalashib, yo‘lni shoxlardan tozalashdi.



Savollarga javob bering

1. Nima uchun Akmal bir o‘zi daraxt shoxini yo‘ldan olib qo‘ya olmadi?
2. Odamlar bir-biriga yordam bersa, nima bo‘ladi?
3. Sizga yordam kerak bo‘lsa, kimdan so‘raysiz? Nima uchun?

Vaziyatni o‘rganing

Birgalikda uddaladik

Ustoz maktabga rangli sharlar olib keldi. O‘quvchilarga ularn puflab, o‘z ismlarini yozishni buyurdi. Ular vazifani bajarib, sharlarni maktab yo‘lagiga olib chiqishdi. Sharlar aralashib ketdi.

Ustoz har bir o‘quvchiga uch daqiqa ichida o‘z ismi yozilgan sharni topishni aytdi. O‘quvchilar o‘z sharlarini izlashga tushdilar, lekin vaqtida topa olishmadi...

Shunda ustoz: “Har kim bitta sharni olib, ismi yozilgan sinfdoshiga bersin”, dedi. Oradan ikki daqiqa o‘tmasdan hammaning qo‘lida o‘zining shari bor edi.

Kimki faqat o‘zini o‘ylasa, hech narsaga erisha olmaydi. O‘zaro birlashib, har qanday ishni oson bajarish mumkin.



O‘qituvchi yordamida o‘rganing



Odam biror ishni bajarishga qiynalsa, boshqalardan yordam so‘rashi kerak. Siz o‘zingiz ham ota-onangiz, oila a’zolaringiz, qarindosh va do‘stlaringizga yordam bera olasiz. Qo‘lingizdan kelsa, hammaga yordam bering, hatto o‘simlik va hayvonlarga ham.



Sizning kimgadir yoki o‘simlik va hayvonlarga qanday yordamingiz tegishi mumkin? Misollar keltiring.



Og‘zaki topshiriq

Rasmlardan foydalanib, voqeani so‘zlab bering.









14-15-darslar

MINNATDORLIK

2

Xalq o‘gitlari

Yaxshilik qilgan yaxshilik ko‘radi.

Yozma topshiriq

Men kimdan nima uchun minnatdorman?

Savollarga javob bering

1. Qanday hollarda minnatdorlik bildiriladi?
2. Siz hayotda kimlardan minnatdorsiz?
3. Minnatdorlikni qaysi so‘zlar orqali bildirasiz?
4. Noshukurchilik qanday oqibatlarga olib keladi?

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Minnatdorlik yaxshilikni bilish demakdir. Bizga berilgan hamma ne’matlar, qilingan yaxshiliklar uchun minnatdor bo‘lishimiz kerak. Atrofimizda nimaiki yaxshilik bo‘lsa, ko‘ra olishimiz, hammasi uchun odamlarga, tabiatga rahmat aytishimiz lozim.

Vaziyatni o‘rganing

Bir keksa buvining bog‘ida olma daraxti bor edi. U qo‘shni bolalarni chaqirib, olmalarini terib berishni va bir qismini o‘zlari bilan olib ketishlarini so‘radi.

Bolalar tergan olmalarini yeb, po‘choqlarni har tomonga otdilar.

Buni ko‘rgan buvi juda xafa bo‘ldi.

Savollarga javob bering

1. Buvijon bolalarga qanday yaxshilik qilmoqchi edi?
2. Bolalar buvijonning taklifiga qanday munosabatda bo‘lishdi?
3. Ularning o‘rnida nima qilgan bo‘lardingiz?



Vaziyatni o‘rganing

Tasviriy san’at darsida Azamatning qalami sinib qoldi. Buni ko‘rgan Malika qalam ochqichini unga uzatdi. Azamat qalamining uchini chiqarib, chizishda davom etdi.



Savollarga javob bering

1. Malika qanday yaxshilik qildi?
2. Azamat nima deyishi kerak edi?

Yodda tuting

Sizga yordam bergan odamga minnatdorlik bildiring. Uning yaxshiligini unutmang. O‘zingiz ham boshqalarga yaxshilik qiling.

Og‘zaki topshiriq

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Bulut ichidagi so‘zlarni qachon ishlatamiz?

Rahmat
Marhamat
Salomat bo‘ling
Tashakkur
Iltimos
Minnatdorman
Yaxshiligingizni unutmayman
Katta rahmat

Bo‘yang

1. Dars siz uchun qiziqarli bo‘ldimi?




2. Dars mazmuni tushunarli bo‘ldimi?




MUSTAHKAMLASH

Yozma topshiriq

Sehrli so‘zlarni eslang.

Minnatdor bo‘lganda qanday so‘zlarni aytamiz?

“Xayr” so‘zini qaysi so‘zlar bilan almashtirish mumkin?

Sehrli so‘zlarni belgilang.

- ☐ Salom
- ☐ Salomat bo‘ling
- ☐ Xayr
- ☐ Yaxshimisiz?
- ☐ Rahmat
- ☐ Iltimos
- ☐ Omadsiz
- ☐ Ko‘rishguncha
- ☐ O‘zing shunaqasan
- ☐ Xayrli kun
- ☐ Kechirasiz
- ☐ Minnatdorman

Yozma topshiriq

Yordam qanday bo‘lishi mumkin?

Xalq o‘gitlari

- Daraxt – ildizi bilan,
  Odam – do‘stlari bilan.
- Burgut kuchi – oyog‘ida,
  Odamniki – do‘stlikda.
- Do‘sting bilan dildosh bo‘l,
  Qilar ishiga qo‘ldosh bo‘l.
- Do‘sting bo‘lsa, bog‘ing chamandir,
  Do‘sting bo‘lmasa, fe’ling yomondir.

Bugun darsda nimalarni o‘rgandingiz? Gapirib bering.

Rasmda qaysi fasl tasvirlangan?



Rasm asosida hikoya tuzing.

1. Qishda qanday kiyinish kerak?
2. Yo‘llar nima uchun qordan tozalanadi?
3. Qishda bolalar qanday o‘yinlarni o‘ynaydilar?
4. O‘yin chog‘ida nimalarga ahamiyat berish zarur?
5. Qishda kasal bo‘lmaslik uchun nima qilish kerak?





Men va fazilatlarim



ISHONCH NIMA?

3

Vaziyatni o‘rganing

Madina, Nozima va Mashhura – dugona. Madina bir sirni dugonalariga aytib, hech kimga oshkor qilmaslikni tayinladi. Ammo Mashhura bu sirni boshqa o‘rtoqlariga aytib berdi. Nozima sukut saqladi.

Savollarga javob bering

1. Madinaning sirdoshi kim ekan?
2. Sirni kimga aytgan ma’qul?
3. Do‘stingiz sirini aytsa, uni saqlay olasizmi?

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Ikki o‘rtoq va ayiq



Ikki o‘rtoq o‘rmonda ketib borardi. Kutilmaganda bahaybat ayiq chiqib qoldi. Bolalardan biri shu zahoti daraxtga chiqib, novdalar orasiga berkindi. U do‘stiga yordam bermadi. Ikkinchisi qochishga ulgurmadi, shu bois yerga yotib oldi. Ayiq unga yaqin keldi, bola nafas olmay yotdi. Ayiq uni hidlab-hidlab, birozdan so‘ng qaytib ketdi.

Daraxtga chiqib olgan bola yerga tushib: “O‘rtoq, ayiq qulog‘ingga nimalarni pichirladi?” deb so‘radi. O‘rtog‘i unga javoban debdi: “Seni qiyin ahvolda tashlab ketadigan odam bilan do‘st bo‘lma, deb aytdi”.

Haqiqiy do‘st boshga og‘ir musibat tushganda bilinadi.

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Ishonch – bu odamlarning to‘g‘riso‘zligi, sadoqati va halolligiga ishonish.

Ishonch har qanday munosabatlar uchun zarurdir.





Yozma topshiriq

O‘zingiz ishonadigan insonlarning ismlarini yozing. Nima uchun ularni tanladingiz?



Uy vazifasi

“Ishonch” so‘zi ishtirokida gaplar tuzing. Bu gaplar qanday ma’no anglatadi?

_____ sazovor bo‘ldi.


_____ oqlayapti.

_____ bildiradi.

_____ hosil qildi.

_____ qozonyapti.

Vaziyatni o‘rganing



Nigora Sobirovna sinf xonasidagi gullarga qarab turishni Sabina va Munisaga topshirdi. Qizlar gullarni parvarishlashga va'da berishdi. Sabina gullarini o‘z vaqtida parvarishladi va ular chiroyli bo‘lib o‘sdi.

Munisa gullarini sug‘ormadi va ular so‘lib qoldi.

Savollarga javob bering

1. Qizlar va'dalarini bajarishdimi? Nima uchun?
2. Qizlardan qaysi biri ishonchni oqladi?
3. Qanday qilib ishonch qozonish mumkin?

Guruhlarda ishlash

Gaplarni mazmuniga mos qismlar bilan birlashtiring.

Hayot va ishonchni	hech narsa bilan qaytarolmaysiz.
Ishonchni yo‘qotsangiz,	faqat bir marta yo‘qotadilar.

Bo‘yang

1. Dars siz uchun qiziqarli bo‘ldimi?




2. Dars mazmuni tushunarli bo‘ldimi?




Uy vazifasi

O‘ylab ko‘ring va gaplarni to‘ldiring.

Endi men ..... ni bilib oldim.
Endi men ..... qilaman.
Endi men ..... qilmayman.



MEN MUSTAQIL BO‘LAMAN

4

Og‘zaki topshiriq

Rasmlardagi bolalarga ism qo‘ying va ular nima qilayotganini tushuntirib bering.



Gullarni parvarishlash



Kitob o‘qish



Uy vazifasini bajarish



Idishlarni yuvish



Kiyimlarni taxlash

Savollarga javob bering

1. Bolalar qanday ishlarni mustaqil bajaryaptilar?
2. Qaysi ishlarni birovning yordamisiz bajara olasiz?
3. Maktabga ketish uchun tayyorgarlik ko‘rishda sizga kim yordam beradi?

Yodda tuting

- Yangi bilimlarni egallang va yanada mustaqil bo‘ling.
- O‘zingiz bajara oladigan ishlar uchun boshqalarni ovora qilmang.
- Uy ishlarida yaqinlaringizga yordam bering.
- Sinfdoshingiz biror ishni eplay olmayotgan bo‘lsa, unga yordamlashing.

Vaziyatni o‘rganing

Madina va Ozoda – dugona. Ular har kuni ertalab maktab darvozasi oldida uchrashib, sinfga birga kiradilar. Ozoda bugun kechikdi. Madina undan sababini so‘radi.

– Oyim sport kiyimimni uzoq qidirdilar, – dedi Ozoda.



Og‘zaki topshiriq

Kun tartibingizni tasvirlab bering. Harakatlar ketma-ketligini belgilang.



O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Kun tartibiga amal qilish salomatlik uchun foydadir. O‘quvchilar vaqtida yotib, to‘yib uxlasa, kuch-quvvatga to‘ladi. Ertalabki badantarbiya kun davomida bardam bo‘lib yurishga yordam beradi. Shaxsiy gigiyena qoidalarini ham unutmang: ovqatlanishdan oldin albatta qo‘lingizni yuving, kuniga ikki marta tishingizni tozalang.

Savollarga javob bering

1. Nima deb o‘ylaysiz, nega uxlashdan oldin telefonda o‘yin o‘ynash tavsiya qilinmaydi?
2. Nima uchun bolalar uzoq vaqt televizor yoki kompyuter ekrani qarshisida o‘tirishi, soatlab planshet yoki telefonda o‘yin o‘ynashi mumkin emas?

Og‘zaki topshiriq

Mustaqil va kattalar yordamida bajaradigan ishlaringizni ko‘rsating.













Vaziyatni o‘rganing

Otabek darsdan so‘ng Akmalnikiga bordi. Akmal do‘stiga:
– Buving xavotir olmasligi uchun ogohlantirib qo‘y, – dedi.
– Shart emas, endi men katta bolaman, – dedi Otabek.
Buvisi Otabekni uzoq kutdi va xavotir oldi.

Savollarga javob bering

1. Otabek to‘g‘ri ish qildimi? Nima uchun?
2. Otabekning o‘rnida siz nima qilgan bo‘lardingiz?



O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Har bir inson mustaqil bo‘lishi kerak. Shuningdek, qilgan ishiga o‘zi javobgar ekanini ham bilishi lozim. Buni mas’uliyat deb ataymiz.

Og‘zaki topshiriq

Berilgan jumlalarni qatnashtirib, mas’uliyat bilan qilgan ishlaringizga misollar keltiring.


So‘zlar bankidan foydalaning: o‘z vaqtida bordim, uy vazifasini bajardim, kitobni o‘z vaqtida qaytardim, uy hayvonlariga ovqat berdim, ukamga qaradim, onamga yordamlashdim.

Bo‘yang

1. Dars siz uchun qiziqarli bo‘ldimi?



2. Dars mazmuni tushunarli bo‘ldimi?



HALOLLIK

O‘qituvchi bilan o‘rganing

Gul o‘stirolmagan bola
(Koreys xalq ertagi)

Bir mamlakatning dono qiroli bor ekan. U har tomonlama baxtli bo‘lsa-da, biroq merosxo‘ri yo‘q edi. Kunlarning birida qirol shunday deb o‘ylabdi: “O‘z mamlakatimda eng samimiy, rostgo‘y bolani tanlasam va uni merosxo‘r qilib tayyorlasam qanday bo‘larkan?”

U mamlakatdagi barcha bolalarga gul urug‘i tarqatishni buyurib, shunday deb farmon beribdi: “Kim bu urug‘lardan chiroyli gullar o‘stira olsa, u mening merosxo‘rim bo‘ladi”.

Hamma bolalar gul o‘stira boshlabdilar.

Bolakay Suir ham juda qattiq harakat qilibdi. Ma’lum vaqt o‘tsa-da, gultuvakda hech qanday gul unib chiqmabdi.

“Bu qanday g‘alati holat?” – hayron bo‘libdi Suir.

Nihoyat, bolalar o‘z natijalarini ko‘rsatish vaqti kelibdi.

Hamma ajoyib gullarni olib kelibdi va faqat Suir bo‘sh tuvakni ushlab yig‘lab turardi. Shunda qirol uning oldiga kelib so‘rabdi:

– Nima uchun bo‘sh tuvak bilan turibsan?

Suir urug‘larni qanday ekkanini, ularni qanchalik parvarish-lasa ham urug‘lar unib chiqmaganini so‘zlab beribdi.

Qirol Suirning qo‘lidan ushlab shunday debdi:

– Bu – mening merosxo‘rim! Bolalarga tarqatilgan urug‘lar qaynatilgan, ular unib chiqishi mumkin emas edi.

Savollarga javob bering

1. Nima uchun bolalar qirolni aldamoqchi bo‘lishdi?
2. Haqiqatni aytish yolg‘on gapirishdan ko‘ra osonmi?

Xalq o‘gitlari

- Yolg‘onchi chin deyolmas,
  Chin desa ham, el inonmas.
- Rost gap aytgan yengilmas.
- To‘g‘ri so‘z toshni yorar,
  Egri so‘z — boshni.
- Bir yolg‘ondan qirq yolg‘on.

Guruhlarda ishlash

3	8	2	1	4	9	6	5	7	11	10
g‘	z	o‘	t	r	l	s	i	o‘	k	i

6	2	9	8	1	3	7	4	10	5
i	a	i	l	s	m	y	i	k	m





Yozma topshiriq

Halollikka ma’no jihatidan yaqin va qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni belgilang.

- Haqiqat
- Yolg‘on
- Samimiy
- Rostgo‘y
- Ochiqko‘ngil
- Adolat
- Aldoqchi
- Qo‘rqoq



Uy vazifasi

Yolg‘onchilik va rostgo‘ylik haqida maqol topib yozing.

Og‘zaki topshiriq



Do‘stingiz uy vazifasini bajarmagani uchun ikki baho oldi. Buni yaqinlaridan xafa bo‘lishmasin deb yashirmoqchi. Bu vaziyatda siz do‘stingizga qanday maslahat berasiz?

Yodda tuting

Halollik nafaqat so‘zda, balki amalda ham rostgo‘y bo‘lishni anglatadi.

Vaziyatni o‘rganing



Aka ukasining xonasiga qarab:

– Jasur, darsingni qilib bo‘ldingmi? – deb so‘radi.

– Ha, – deb javob berdi bola o‘ynab o‘tirgan holda.

– Zo‘r! Demak, senga yordam kerak emas. Men o‘rtoqlarim bilan futbol o‘ynashga ketdim.

“Eh, nima qilib qo‘ydim, – dedi Jasur stoldagi daftarlariga qarab. – Akam menga yordam berar edi”. U xo‘rsinib, telefonini bir chekkaga qo‘ydi va bir o‘zi dars tayyorlashga kirishdi.

Savollarga javob bering

1. Akasi nega Jasurdan uy vazifasi haqida so‘radi?
2. Yolg‘onchilik qanday oqibatga olib keldi?
3. To‘g‘riso‘zlik Jasurga qanday yordam berar edi?

Bo‘yang

1. Dars siz uchun qiziqarli bo‘ldimi?




2. Dars mazmuni tushunarli bo‘ldimi?




Uy vazifasi

Gapni to‘ldiring.

1. To‘g‘ri so‘zlash .....
   .....ga yordam beradi.
2. To‘g‘riso‘z bo‘lishimiz kerak, chunki.....
   .....
3. To‘g‘riso‘z inson doimo.....
   .....

ASRAB-AVAYLAYMIZ

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Har bir o‘quvchi tabiatni, o‘zi o‘qiyotgan maktab mulkini, shaxsiy buyumlarini asrab-avaylashi kerak. Bolaning odobi shunday vaziyatlarda bilinadi. Tejash qizg‘anchiqlik emas, isrofgarchilikning oldini olishdir.





Savollarga javob bering

1. Rasmlarda nimalarni ko‘ryapsiz?
2. Ko‘chat va gullarni nima uchun ekamiz?
3. Siz ham ko‘chat va gullar ekkanmisiz?
4. Ularni qanday parvarish qilishni bilasizmi?

Xalq o‘gitlari

- Suv – hayot manbai.
- Birni kessang, o‘nni ek.
- Bog‘ chiroyi gul bilan.
- Yerga qarasang, bog‘ bo‘lar,
  Ko‘ngil ochilib, chog‘ bo‘lar.

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

O‘zbekistonning tabiati go‘zal. Biz ana shu go‘zallikni asrab-avaylashimiz lozim. Kimdir shaharda, kimdir qishloqda yashaydi.

Siz qayerda yashaysiz? O‘zingiz yashayotgan joy haqida gapirib bering.

Qishlog‘ingiz yoki shahringiz atrof-muhitini asrash, ozodaligini saqlash uchun qanday hissa qo‘shasiz?

Tabiatni asraymiz

Suv va elektr energiyasini tejang!

Ba’zan uydagi suv va chiroqlarni o‘chirishni unutamiz. Bunday holatda bizga eslatmalar yordam beradi!

Jo‘mrak yoniga va chiroq yoqib-o‘chiriladigan joylarga yopishtirish uchun kichik eslatmalar tayyorlang. Bunday eslatmalarni sinf xonasiga, maktab yoki uyga ilib qo‘yish mumkin.

Savollarga javob bering

Rasmlarga qarang. Bu bolalarni tejamkor deb atash mumkinmi? Suvni isrof qilish, tabiatni asramaslik qanday oqibatlarga olib keladi?



Topishmoqni toping

O‘zi oyoq ostida,
Hammani to‘ydiradi.



O‘yib oldim, izi yo‘q.



Oppoq sochli boshlari,
Daryo bo‘lar yoshlari.



Yozma topshiriq

Jadvalni to‘ldiring. Nima to‘g‘ri va nima noto‘g‘ri ekanligini belgilang. Tanlovingizni tushuntiring.

To‘g‘ri ✓ **Noto‘g‘ri** ✗

Suv va chiroqdan foydalanmagan paytda o‘chirmaslik	
Elektr va suvni tejash	
Duch kelgan joyga axlat tashlash	
Chiqindilarni maxsus joylarga tashlash	

Uy vazifasi

Uy hayvonlaridan birining rasmini chizing. Siz chizgan uy hayvonining qanday foydasi bor? Uy hayvonlarini qanday parvarish qilish kerakligi haqida gapirib bering.

Vaziyatni o‘rganing

Quyidagi holatlarni ko‘rib qolsangiz, qanday yo‘l tutasiz?

1. O‘rtog‘ingiz suvga axlat tashlayapti.
2. Xonada hech kim yo‘q, lekin chiroq va televizor yoqilgan.
3. Singlingiz qo‘g‘irchog‘ining sochini yulyapti.

Og‘zaki topshiriq

Rasmlarga qarang. Rasmlardagi holatlar haqida gapirib bering.





Siz ham kimgadir g‘amxo‘rlik qilganmisiz? Bundan xursand bo‘lganmisiz?

Vaziyatni o‘rganing

Hikoyaning davomini o‘ylab toping.

1-vaziyat. Maktabdan qaytayotganda ucha olmay yerda turgan polaponni ko‘rdingiz.



2-vaziyat. Ukangiz (singlingiz) katta non bo‘lagini olib, ko‘chaga o‘ynash uchun ketyapti.



Yodda tuting

- Nonni maxsus toza idishlarda saqlang.
- Keragidan ortiq non ushatmang.
- Nonni chiqindiga tashlamang.
- Nonni har joyda qoldirmang.

Yozma topshiriq

D	I	Q	Q	A	T	B	S
T	E	J	A	M	K	O	R
G	A	M	X	O‘	R	C	Y
Q	O‘	R	I	Q	L	A	SH
K	U	Z	A	T	U	V	T
I	SH	O	N	CH	K	O‘	Z

Uy vazifasi

Buvingiz yoki onangiz bilan non qanday tayyorlanishi haqida suhbatlashing.

MUSTAHKAMLASH

Og‘zaki topshiriq

1. “Men va fazilatlarim” mavzusidagi darslardan nimalarni eslab qoldingiz?



2. Rasmlarga qarang. Bolalarning yaxshi ishlari qanday natijalarga olib kelishini o‘ylab ko‘ring.







O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Toshbaqa bilan quyon

Toshbaqa bilan quyon qay biri chopqirligi ustida bahslashib qoldi. Ular buni bellashuvda hal qilmoqchi bo‘lishdi.

Quyon o‘zining tug‘ma chopqirligiga ishondi. Yo‘l chetiga yonboshlab, qattiq uyquga ketdi. Toshbaqa esa imillab yurishini bilgani uchun astoydil harakat qildi, to‘xtovsiz yurdi. Natijada bahsda quyonni yengdi.

Odam biror ishni qila olmayman demasdan, aniq maqsad sari harakat qilsa, albatta natijaga erishadi.

Ezop

Savollarga javob bering

1. Quyon nima uchun g‘olib bo‘lishiga ishondi?
2. Toshbaqaning yutug‘i sababi nimada?
3. Hayotda kimlar ko‘proq natijaga erishadi?



Yozma topshiriq

Berilgan so‘zlarning ma’nosiga yaqin va qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni toping.

	Bir xil	Qarama-qarshi
Mehribon		
To‘g‘riso‘z		
G‘amxo‘r		
Mustaqil		

So‘zlar banki: erkin, bag‘ritosh, rostgo‘y, shafqatli, beparvo, rahmdil, yolg‘onchi, qaram.







Belgilarni daftaringizga chizing. Bu belgilar nimani anglatadi?
Bugun nimalarni o‘rgandingiz? Gapirib bering.



1. Rasmga qarang. Bu yerda kimlar tasvirlangan?
2. Qanday belgilarni ko'ryapsiz?
3. Har bir belgi nimani ifodalaydi?
4. Nima uchun bolalar maydonchasida maxsus tartib-qoidalarga amal qilish kerak?
5. Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Rasm asosida kichik hikoya tuzing.



Bizning madaniyatimiz



MENING XATTI-HARAKATLARIM

Og‘zaki topshiriq

Rasmga diqqat qiling. Bu izlar qaysi jonzotlardan qolgan?



Tasavvur qiling, qirg‘oqdagi qumloqda ketyapsiz. Oyoqlaringiz izi qoladimi?




O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Inson qilgan har bir ishdan yaxshi yoki yomon iz qoladi. Qumloq yoki tuproqda odam oyoqlari iz qoldirgani ko‘rinadi. Biroq biz ko‘rmaydigan, lekin his qiladigan “iz”lar ham bor.

Vaziyatni o‘rganing

Vaziyatlarni taqqoslang. Ikki xil xatti-harakat odamlar yodida qanday taassurot qoldirdi? Nima uchun shunday deb o‘ylaysiz?

1-vaziyat. Bir savobtalab kishi mahalla markaziga chiroyli favvora qurdi. Favvora atrofga salqinlik berardi. Qushlar undan suv ichardi. Odamlar uning atrofida dam olar va suratga tushardi.



2-vaziyat. Bir odam doim norozi kayfiyatda yurardi. U hech kulmas, duch kelgan kishiga shikoyat qilardi. Uyi oldida o'ynab yurgan bolalarni quvardi. Shu bois uni hech kim yoqtirmasdi.



Yozma topshiriq


Qaysi xatti-harakatlarimiz ko'zga ko'rinadigan iz qoldiradi? Qaysilarini ko'rmasak-da, his qilamiz?

Ko'ramiz										
His qilamiz										

So‘zlar banki:

1) onalar uchun tabriknoma yasash;
2) o‘rtog‘ini xafa qilish;
3) xonani yig‘ishtirish;
4) gul ekish;
5) daraxtlarni oqlash;
6) singlisini ovutish;
7) a’lo bahoga o‘qish;
8) ko‘chaga axlat tashlash;
9) sinfdoshlariga kitob ulashish;
10) bobosidan duo olish.

Uy vazifasi



Ijodiy topshiriq

Yaxshi nom qoldirish uchun nima qilishni xohlardingiz? Rasmini chizing.

Og‘zaki topshiriq

1. Hikoyani o‘qing va unga sarlavha toping.

– Ertaga tabiat qo‘yniga sayrga chiqamiz, – dedi o‘qituvchi. Hamma xursand bo‘lib, kim nima olib borishini bilib oldi.

– Men kartoshka olib boraman, – dedi Komil.

Akbar pomidor va bodring, qizlar non va shirinliklar olib boradigan bo‘ldi.

Ertasi kuni bolalar sayrga chiqdilar. O‘g‘il bolalar qizlarni ayab, yuklarni ko‘tarib olishdi.



2. Hikoyani rasm asosida davom ettiring.



Savollarga javob bering

1. Sayrdan keyin bolalar nimalarni qoldirib ketishdi?
2. Bunday holatlar qanday yomon oqibatlarni keltirib chiqaradi?
3. Tabiatga zarar yetmasligi uchun nima qilish kerak edi?

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Oqila malika

Amir Temur safarga ketgan chog‘larda Samarqandda davlatni Bibixonim boshqarardi. Malika bu paytda yangi qurilayotgan binolarni nazorat qilar, shaharni obod qilishga bosh-qosh bo‘lardi. Bibixonim maktab va madrasalar qurilishiga alohida e’tibor bergan.

Oqila malika odamlar hayotini bilish uchun tunda shahar ko‘chalarini aylanardi. Beva-bechoralar holidan xabardor bo‘lib, ularga yordam berardi. Xalq malikaning savobli ishlari uchun duo qilardi.



Yaxshidan bog‘ qoladi.

Savollarga javob bering:

1. Amir Temur haqida qanday ma’lumotga egasiz?
2. Bibixonimning kim ekanini bilasizmi?
3. Hikoya nima uchun “Oqila malika” deb nomlangan?

Uy vazifasi

1. Do‘stlaringiz bu hafta qanday yaxshi ishlarni qildi?
2. Kattalardan yaxshilikning foydasi haqida so‘rang. Nimalarni bilib oldingiz? Gapirib berishga tayyorlaning.

MEHMONDORCHILIK ODOBI

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Savollarga javob bering

1. Mehmonga borishni yoqtirasizmi? Mehmon taklif qilishni-chi?
2. Mehmonlar kelishiga qanday tayyorgarlik ko‘rasiz?

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

O‘zbeklar – mehmondo‘st xalq. Ostonadan kirib kelgan barcha insonga hurmat ko‘rsatib, uni ochiq chehra bilan kutib olish va mehmon qilish xalqimizning odatlaridan.

Yozma topshiriq

Mamlakatimizda nishonlanadigan bayramlarni toping.

Y	N	S	A	K	K	I	Z	I	N	Ch	I	M	A	R
N	A	Y	M	V	A	Q	I	G	U	N	Y	P	N	T
G	V	Z	U	S	T	G	L	S	K	I	Sh	K	U	U
I	R	O‘	D	X	I	R	L	I	K	R	A	L	N	I
Y	I	L	G	O	T	A	V	A	Q	A	D	R	S	A

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

Sizni mehmonga taklif qilishdi. Quruq qo‘l bilan borish odobdan emas. Hurmat yuzasidan biron sovg‘a olib borish mezbonlarni xursand qiladi. Sovg‘ani to‘g‘ri tanlash uchun mezbonlarga nima yoqishini bilish kerak.



Savollarga javob bering

1. Sovg‘ani qanday tanlash kerak?
2. Sovg‘a sizga yoqmasa, mehmonni xafa qilmaslik uchun qanday yo‘l tutasiz?

Yodda tuting

Yaqinlaringizni o‘zingiz tayyorlagan sovg‘a bilan xursand qiling. Buning uchun siz:

- qog‘ozdan tabriknoma, taklifnoma, gilamcha;
- bo‘sh qutilardan chiroyli sandiqchalar yasashingiz;
- matodan kashtali ro‘molcha, savatcha, igna tutgich, ko‘zoynak uchun g‘ilof tikishingiz mumkin.

Sovg‘ani chiroyli qilib bezatish kerak.



Ijodiy topshiriq

Tug‘ilgan kuningiz uchun taklifnoma rasmini chizing.

Yodda tuting

- Taklif qilingan joyga boring.
- Kech qolish odobdan emas.
- Dasturxon odobiga amal qiling.
- Mehmonda uzoq o‘tirib, mezbonlarni zeriktirmaslik kerak.
- Ketayotganda mezbonlarga minnatdorlik bildirish lozim.

Savollarga javob bering

1. Siz kimlarning uyida mehmonda bo‘lgansiz?
2. Mehmonga borganingizda biror qiziqarli voqea bo‘lganmi?
3. Mehmonga borganda nimalardan xursand bo‘lgansiz?





Xalq o‘gitlari

Odobni odobsizdan o‘rgandim

Luqmoni hakimdan so‘radilar:
– Odobni kimdan o‘rganding?
– Odobsizdan, – javob qildi u.
– Iye, qanaqasiga? – hayron bo‘ldilar.
– Odobsizning qaysi ishi ko‘zimga yomon ko‘rinsa, o‘sha ishlarni qilmadim.



Guruhlarda ishlash

Mehmonda o‘zini tutish qoidalarini belgilang. To‘g‘ri ✓ Noto‘g‘ri ✗

Eshikni qattiq taqillatish	Taklif qilinmagan bo‘lsa-da, borish
Mezbon uchun shirinliklar olib borish	Dasturxon atrofida tartib saqlab o‘tirish
Uy egalarining ruxsatisiz ularning narsalariga tegish	Uy egalariga qo‘pollik qilish
Shovqin solish	Kech qolmasdan o‘z vaqtida borish
Mehmonda telefon o‘ynab o‘tirish	Uy egalari bilan xayrlashmasdan ketish



Uy vazifasi

Biror do‘stingiz yoki yaqiningiz uchun o‘z qo‘lingiz bilan sovg‘a tayyorlang.

BAG‘RIKENG YURTIM

Savolga javob bering

O‘zbekiston qaysi davlatlar bilan chegaradosh? Rasmga qarab ayting. Har bir davlatning milliy liboslarini toping.



Videorolikni tomosha qiling.

5

O‘qituvchi yordamida o‘rganing

O‘zbekistonda, asosan, o‘zbeklar yashaydi. Shu bilan birga, qoraqalpoq, tojik, rus, qozoq, qirg‘iz, turkman va boshqa millat vakillari ahil-inoq istiqomat qiladi.

Mamlakatimiz aholisi turli dinlarga, ya’ni islom, xristianlik, yahudiy va boshqalarga e’tiqod qiladi. Buning uchun to‘sqinlik qilinmaydi.

Yurtimiz aholisining katta qismi Islom diniga e’tiqod qiladi.

Makka – musulmonlarning muborak shahri. Payg‘ambar Muhammad alayhissalom ham shu shaharda dunyoga kelganlar.





Yozma topshiriq


Sizning atrofingizda qaysi millat vakillari yashaydi? Belgi qo‘ying yoki bo‘sh joyga yozing.

O‘zbeklar	Tojiklar	Qozoqlar
Qoraqalpoqlar	Ruslar	Qirg‘izlar
Turkmanlar	Tatarlar	Koreyslar



Guruhlarda ishlash

O‘ylab ko‘ring, inson hurmatga sazovor bo‘lishi uchun qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak? Bu xislatlarni quyosh nurlari ichiga yozing.



Yozma topshiriq

1. Endi men .....
   ..... ni bilib oldim.
2. Endi men .....
   ..... qilaman.

Uy vazifasi

Yulduzchalarga do‘stlaringizning ismini yozing. Ular haqida qisqacha hikoya tuzing. Boshqalarga qanday munosabatda bo‘lishingiz kerakligini o‘ylab ko‘ring.



MUSTAHKAMLASH



Yozma topshiriq

1. Vatan – bu .....
.....
.....
.....
2. Do‘stlik – bu .....
.....
.....
.....
.....
3. Maktabimni yaxshi ko‘raman, chunki .....
.....
.....
.....
.....
4. Odobli bo‘lish – bu .....
.....
.....
.....
.....
5. Tabiatni asrab-avaylashimiz kerak, aks holda .....
.....
.....
.....
.....

YAKUNIY DARS



Savollarga javob bering

1. “Tarbiya” so‘zini qanday tushunasiz?
2. Insonlarning qaysi yaxshi xislatlarini bilasiz?
3. Odamning qanday yomon jihatlari bo‘lishi mumkin?



Guruhlarda ishlash

Darslikdagi o‘zingizga ma’qul bo‘lgan mavzuni toping. Shu mavzu haqida gapirib bering:

“Men yashaydigan O‘zbekiston”;

“Maktabim – ikkinchi uyim”;

“Men mustaqil bo‘laman”;

“Mening xatti-harakatlarim”.

Oftob va odob

Oftob yaxshimi,
Odob yaxshimi?
Oftob berar nur,
Odob-chi, huzur.
Oftob ko‘rinar
Tog‘-tepalikda.
Odob ko‘rinar
Salom-alikda.

Po‘lat Mo‘min


Ushbu belgilarni daftaringizga chizing.


Rasm asosida kichik hikoya tuzing.
1. Rasmga qarang. Bu yerda nima tasvirlangan?
2. Qanday belgilarni ko‘ryapsiz?
3. Har bir belgi nimani ifodalaydi?
4. Nima uchun hayvonot bog‘ida maxsus qoidalarga rioya qilish kerak?
5. Ushbu qoidalarga amal qilmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Mundarija

Kirish 4

Mening Vatanim – O‘zbekiston

1-mavzu. Men yashaydigan O‘zbekiston..... 10
2-mavzu. Men kimman?..... 13
3-4-mavzular. Maktabga sayohat 16
5-6-mavzular. Maktabim – ikkinchi uyim..... 25
7-mavzu. Uydan maktabgacha yo‘l 31
8-mavzu. Biz ahil jamoamiz 34
9-mavzu. Mustahkamlash 39

Men va do‘stlarim

10-11-mavzular. So‘zlashish odobi 46
12-13-mavzular. O‘zaro yordam..... 51
14-15-mavzular. Minnatdorlik..... 56
16-mavzu. Mustahkamlash 60

Men va fazilatlarim

17-18-mavzular. Ishonch nima?..... 66
19-20-mavzular. Men mustaqil bo‘laman..... 70
21-22-mavzular. Halollik 76
23-24-mavzular. Asrab-avaylaymiz 81
25-mavzu. Mustahkamlash..... 87

Bizning madaniyatimiz

26-27-mavzular. Mening xatti-harakatlarim..... 94
28-29-mavzular. Mehmondorchilik odobi 101
30-31-mavzular. Bag‘rikeng yurtim 106
32-mavzu. Mustahkamlash 110
33-mavzu. Yakuniy dars 111

UO'K: 17(075.3)
KBK 87.7ya7
T 23

O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova
Tarbiya 1-sinf: darslik / O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 116 b.

Taqrizchilar:

Sh.T.Rizayev – "Kinematografiya" agentligi direktori o'rinbosari, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi;

B.N.Karimov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi;

Sh.O.Ergasheva – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bosh mutaxassisi, filologiya fanlari nomzodi.

Shartli belgilar:



O'qituvchi yordamida o'rganing



Savollarga javob bering



Vaziyatni o'rganing



Ijodiy topshiriq



Uy vazifasi



Bo'yang



Yozma topshiriq



Og'zaki topshiriq



Yodda tuting



Tabiatni asraymiz



Xalq o'gitlari



Guruhlarda ishlash

ISBN 978-9943-7209-8-5

© O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova. 2023.
© "Novda Edutainment", 2023.

Olesya Usmanova
Yuliya Risyukova

Tarbiya
1-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrir	*M. Usmanova*
Badiiy muharrir	*A. Sobitov*
Musahhih	*Sh. Muslimova*
Rassomlar:	*R. Ismailova, G. Jurayeva*
Kompyuterda sahifalovchi	*I. Tursunov*

Nashriyot litsenziyasi AI No158. 30.06.2023- yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8. Kegli 16 n/shponli. "Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m^2 qog'oz. Shartli b.t. 14,5. Hisob-nashriyot t. 3,01. Adadi 626 981 nusxa. Buyurtma raqami 23-231. "O'zbekiston" NMIUda chop etildi.